O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Quدرات qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	



SUN'IY INTELEKT TEKNOLOGIYALARINING PSIXOLOGIYADA QO'LLANILISHI

Yoqubova Gulhayo Erkin qizi

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-6191-5634>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiya sohasida qo'llanilish imkoniyatlari, ularning diagnostika, konsultatsiya va psixoterapiya jarayonlaridagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning inson psixikasini o'rganish, xulq-atvorni prognoz qilish hamda individual yondashuvni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt psixologik xizmatlar samaradorligini oshirish bilan birga, yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi hamda raqamlashtirish, avtomatlash-tirish va optimallashtirish jarayonlarini jadallashtiradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, psixologiya, psixodiagnostika, psixoterapiya, raqamli texnologiyalar, kognitiv jarayonlar, emotsional tahlil, chatbot, neyron tarmoqlar, big data, inson xulqi, prognozlash, psixologik xizmatlar, innovatsiya.

Abstract: This article analyzes the possibilities of applying artificial intelligence technologies in the field of psychology, as well as their role in diagnostic, counseling, and psychotherapeutic processes from a scientific perspective. Furthermore, the importance of AI-based systems in studying the human psyche, predicting behavior, and ensuring an individualized approach is highlighted. The research findings indicate that artificial intelligence not only enhances the effectiveness of psychological services but also contributes to the development of new scientific approaches, accelerating the processes of digitalization, automation, and optimization.

Key words: artificial intelligence, psychology, psychodiagnostics, psychotherapy, digital technologies, cognitive processes, emotional analysis, chatbot, neural networks, big data, human behavior, prediction, psychological services, innovation.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности применения технологий искусственного интеллекта в области психологии, а также их роль в диагностике, консультировании и психотерапевтических процессах с научной точки зрения. Кроме того, раскрывается значение систем, основанных на искусственном интеллекте, в изучении психики человека, прогнозировании поведения и обеспечении индивидуального подхода. Результаты исследования показывают, что искусственный интеллект не только повышает эффективность психологических услуг, но и способствует формированию новых научных подходов, ускоряя процессы цифровизации, автоматизации и оптимизации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, психология, психодиагностика, психотерапия, цифровые технологии, когнитивные процессы, эмоциональный анализ, чат-бот, нейронные сети, большие данные, поведение человека, прогнозирование, психологические услуги, инновации.

KIRISH

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon psixologiya fanini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Psixologiya insonning ruhiy jarayonlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini o'rganadigan fan sifatida doimo yangi metodlar va yondashuvlarga ehtiyoj sezib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyaga integratsiyalashuvi ushbu fan rivojining mantiqiy bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashgan bugungi davrda katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tezkor va aniqlik bilan qayta ishlash, inson xulq-atvorini modellashtirish hamda psixologik jarayonlarni prognozlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy psixologik tadqiqot metodlari ko'pincha vaqt va resurs talab qiluvchi jarayon bo'lib, ular doim ham murakkab psixik hodisalarni chuqur va keng qamrovda tahlil qilish imkonini bermaydi. Shu jihatdan, sun'iy intellekt texnologiyalari psixologik ma'lumotlarni tahlil qilishda yangi sifat bosqichini boshlab bermoqda.

Hozirgi kunda psixologik diagnostika, psixologik maslahat va psixoterapiya jarayonlarida avtomatlashtirilgan tizimlar, xususan, neyron tarmoqlar, chatbotlar va affektiv hisoblash (emotional analysis) texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa psixologik xizmatlarning ommaviyligi, tezkorligi va individual yondashuv darajasini oshirish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt inson omilini to'liq almashtirmasdan, balki psixolog mutaxassis faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi innovatsion vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi nafaqat amaliy samaradorlikni oshiradi, balki psixologiya fanining nazariy asoslarini ham boyitadi. Shu sababli, ushbu maqolada sun'iy intellektning psixologiyadagi o'рни, imkoniyatlari va istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi hamda uning psixologik xizmatlar tizimidagi ahamiyati ochib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt va psixologiya integratsiyasi masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tobora dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Xususan, xorijiy ilmiy maktablarda ushbu yo'nalish tizimli ravishda o'rganilib, sun'iy intellektning nazariy va amaliy asoslari chuqur ishlab chiqilgan.

S. Russell va P. Norvig tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt konsepsiyalari mazkur texnologiyaning algoritmik va kognitiv asoslarini izohlab berishga xizmat qilgan bo'lsa, D. Kahneman va H. Simon inson tafakkuri hamda qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtirish orqali psixologik jarayonlarni algoritmlashtirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt kesishgan nuqtalarda olib borilgan tadqiqotlar inson ongining mexanizmlarini tushuntirishda yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

Ayniqsa, Herbert Simonning chegaralangan ratsionallik (bounded rationality) nazariyasi hamda Kahnemaning ikki tizimli tafakkur modeli (System 1 va System 2) sun'iy intellekt tizimlarida qaror qabul qilish algoritmlarini yaratishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellektning psixologiyadagi qo'llanilish yo'nalishlari yanada kengayib, ayniqsa affektiv hisoblash (affective computing) sohasida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

A. Kapoor, M. Pantic kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson emotsiyalarini yuz ifodasi, ovoz ohangi va xatti-harakatlar orqali aniqlash imkonini beruvchi algoritmlar ishlab chiqilgan. Bu esa psixologik diagnostika jarayonlarida obyektivlik va aniqlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda psixologik yordam ko'rsatishda sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar va virtual terapevtlar samaradorligi keng o'rganilmoqda.

Xususan, Woebot, Wysa kabi platformalar orqali amalga oshirilgan ilmiy tajribalar ularning depressiya, xavotir va stress holatlarini kamaytirishda muayyan ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar psixologik xizmatlarni keng ommaga yetkazish, vaqt va hududiy cheklavlarni kamaytirish imkonini bermoqda.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda esa asosan raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, psixologik xizmatlarni modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan bo'lsa-da, sun'iy intellektning psixologiya bilan chuqur integratsiyasi, xususan, psixodiagnostika, psixoterapiya va kognitiv modellashtirish yo'nalishlarida yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiya sohasida qo'llanilish imkoniyatlarini chuqur, tizimli va ko'p qirrali tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini fanlararo (interdisiplinar) yondashuv tashkil etib, u sun'iy intellekt, kognitiv psixologiya, axborot texnologiyalari va ma'lumotlar tahlili kabi yo'nalishlar kesishmasida shakllantirildi. Bu esa muammoni biryozqlama emas, balki integrativ yondashuv asosida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda asosiy metodologik tamoyil sifatida tizimli yondashuv qo'llanilib, uning doirasida sun'iy intellekt va psixologiya o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, funksional bog'liqlik hamda strukturaviy integratsiya mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Tizimli yondashuv orqali ushbu ikki yo'nalishning alohida-alohida rivojlanmayotgani, balki yagona ilmiy-texnologik tizim sifatida o'zaro ta'sirda shakllanayotganligi asoslab berildi. Shu bilan birga, psixologik jarayonlarning algoritmlashtirilishi va raqamli modellashtirilishiga oid nazariy asoslar aniqlashtirildi. Shuningdek, komparativ (taqqoslash) tahlil metodidan foydalanish orqali an'anaviy psixologik tadqiqot metodlari bilan sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy texnologik yondashuvlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tizimli ravishda o'rganildi.

Mazkur metod yordamida psixodiagnostika, psixologik maslahat va psixoterapiya jarayonlarida qo'llanilayotgan klassik usullar bilan AI asosidagi tizimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari, aniqlik darajasi hamda operativlik xususiyatlari ilmiy asosda qiyosiy baholandi. Natijada sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologik xizmatlar sifatini oshirishdagi ustun jihatlari va mavjud cheklavlari aniqlashtirildi.



Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil metodidan keng foydalanildi. Ushbu metod orqali xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, monografiyalar, empirik tadqiqot natijalari hamda amaliy ishlanmalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Kontent-tahlil yordamida sun'iy intellektning psixologiyadagi qo'llanilishiga oid ilmiy yondashuvlar, asosiy tendensiyalar va rivojlanish dinamikasi aniqlanib, ularning nazariy umumlashmalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, mazkur metod tadqiqot muammosining o'rganilganlik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, modellashtirish metodidan foydalanish orqali sun'iy intellekt asosida ishlovchi psixologik tizimlarning konseptual va funksional modellari ishlab chiqildi. Ushbu metod yordamida inson psixikasi bilan bog'liq kognitiv va emotsional jarayonlarni algoritmik shaklda ifodalash, ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirish hamda amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlashga erishildi. Modellashtirish psixologik jarayonlarni raqamli muhitda simulyatsiya qilish va prognozlash imkonini beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqotda, shuningdek, umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash va nazariy tahlil metodlari ham qo'llanilib, olingan natijalarni tizimlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda muhim rol o'ynadi. Nazariy va empirik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi tadqiqot natijalarining ishonchlilikini, ilmiy asoslanganligini hamda amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari psixologiya sohasida bir qator muhim yo'nalishlarda samarali qo'llanilmoqda va bu jarayon psixologik xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, psixodiagnostika sohasida sun'iy intellekt algoritmlarining joriy etilishi inson psixik holatini aniqlashda yuqori aniqlik va obyektivlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Nutq tahlili, yuz ifodasi va xulq-atvor indikatorlari asosida ishlovchi tizimlar psixologik buzilishlar, emotsional holatlar va kognitiv o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlashga xizmat qilmoqda. Bu esa diagnostika jarayonini nafaqat tezlashtiradi, balki inson omiliga xos subyektiv xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Psixoterapiya va psixologik konsultatsiya jarayonlarida ham sun'iy intellektning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa, chatbotlar va virtual terapevtlar orqali 24/7 rejimda psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos keladi. Bunday tizimlar stress, depressiya va xavotir holatlarini boshqarishda foydalanuvchilarga tezkor yordam berish bilan birga, psixologik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, ular psixologga murojaat qilishdan tortinadigan shaxslar uchun muqobil platforma sifatida ham xizmat qilmoqda. Sun'iy intellektning affektiv hisoblash (emotsional tahlil) sohasidagi qo'llanilishi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu texnologiyalar insonning emotsional holatini yuz ifodalari, ovoz tembri va nutq xususiyatlari orqali aniqlab, unga mos ravishda javob qaytarish imkonini beradi. Bu esa inson-kompyuter o'zaro aloqasini yanada "insoniylashtirish" va psixologik jihatdan moslashuvchan tizimlar yaratishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt kognitiv jarayonlarni o'rganishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Qaror qabul qilish, xotira, diqqat va tafakkur jarayonlarini modellashtirish orqali psixologik mexanizmlarni chuqurroq tushunish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki amaliy psixologiyada ham yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini psixologiyada qo'llash jarayoni bir qator muammolar va cheklovlar bilan ham bog'liq. Avvalo, insoniy omilning yetishmasligi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Sun'iy intellekt tizimlari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, ular insoniy empatiya, hissiy qo'llab-quvvatlash va murakkab ijtimoiy kontekstlarni to'liq aks ettira olmaydi. Bu esa ayrim hollarda psixologik yordam sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, etik va maxfiylik bilan bog'liq muammolar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik ma'lumotlar o'ta shaxsiy va nozik bo'lganligi sababli, ularni sun'iy intellekt tizimlari orqali qayta ishlashda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanadi. Shu jihatdan, mazkur texnologiyalarni joriy etishda qat'iy etik me'yorlar va huquqiy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Yana bir muhim jihat sifatida texnologiyalarga haddan tashqari bog'liqlik xavfi ko'rsatib o'tiladi. Sun'iy intellekt tizimlaridan ortiqcha foydalanish insonning mustaqil fikrlash, emotsional o'zini boshqarish va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiya sohasiga kirib kelishi ushbu fan rivojida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bermoqda. Mazkur texnologiyalar psixologik tadqiqotlar olib borish, diagnostika jarayonlarini takomillashtirish hamda psixologik xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim innovatsion vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va yuqori aniqlik bilan qayta ishlash, inson xulq-atvorini chuqur tahlil qilish hamda prognozlash imkoniyatlari sun'iy intellektning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari psixologik xizmatlar tizimida nafaqat yordamchi vosita, balki qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi kompleks mexanizm sifatida ham shakllanib bormoqda. U psixodiagnostika aniqligini oshirish, psixoterapiya jarayonlarini individuallashtirish, psixologik maslahat berish xizmatlarini kengaytirish hamda inson psixikasini o'rganishda yangi ilmiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar psixologiya fanining nazariy-metodologik asoslarini boyitib, fanlararo integratsiya jarayonlarini kuchaytirmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sun'iy intellektning psixologiyaga joriy etilishi psixolog mutaxassis faoliyatining mohiyatini ham ma'lum darajada transformatsiya qilmoqda. Endilikda psixolog nafaqat inson bilan ishlovchi mutaxassis, balki raqamli texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan, ma'lumotlarni tahlil qiluvchi va innovatsion yondashuvlarni integratsiyalashga qodir professional sifatida shakllanishi zarur bo'lmoqda. Kelgusida sun'iy intellekt va inson psixologiyasi o'rtasidagi integratsiya jarayoni yanada chuqurlashib, psixologik yordam ko'rsatishning innovatsion shakllari – masofaviy terapiya, raqamli diagnostika, adaptiv psixologik tizimlar va shaxsga yo'naltirilgan xizmatlar keng rivojlanishi kutilmoqda. Bu esa psixologik xizmatlarning omma-viyiligi, qulayligi va samaradorligini oshirish bilan birga, ularning individual ehtiyojlarga moslashuv darajasini ham sezilarli ravishda kuchaytiradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini psixologiyada qo'llash jarayonida qator muammolar ham mavjud bo'lib qolmoqda. Jumladan, etik me'yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, algoritmik xatoliklar va noto'g'ri qarorlar ehtimolini kamaytirish hamda insoniy omilni saqlab qolish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Chunki psixologik yordam jarayoni nafaqat texnologik, balki chuqur insoniy, emosional va ijtimoiy munosabatlarga asoslanadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlarining madaniy, ijtimoiy va individual farqlarni to'liq hisobga olmaslik xavfi ham mavjud bo'lib, bu ularning psixologik xizmatlarda qo'llanilish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, kelgusida ushbu texnologiyalarni takomillashtirishda madaniy kontekst, individual psixologik xususiyatlar va etik tamoyillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektni psixologiya sohasida qo'llashda muvozanatli va kompleks yondashuvni ta'minlash zarur. Ya'ni, texnologik imkoniyatlar va insoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirish, psixolog mutaxassisning rolini saqlab qolish hamda innovatsion yechimlarni ilmiy asosda joriy etish muhim hisoblanadi. Faqat shundagina sun'iy intellekt texnologiyalari psixologiya fanining barqaror rivojlanishiga, psixologik xizmatlar sifatini oshirishga va jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial intelligence: A modern approach* (4th ed.). Pearson.
2. Kahneman, D. (2011). *Thinking, fast and slow*. Farrar, Straus and Giroux.
3. Simon, H. A. (1997). *Administrative behavior* (4th ed.). Free Press.
4. Pantic, M., & Rothkrantz, L. J. M. (2003). Toward an affect-sensitive multimodal human-computer interaction. *Proceedings of the IEEE*, 91(9), 1370–1390.
5. Kapoor, A., & Picard, R. W. (2005). Multimodal affect recognition in learning environments. In *Proceedings of the 13th annual ACM international conference on Multimedia* (pp. 677–682). ACM.
6. Fitzpatrick, K. K., Darcy, A., & Vierhile, M. (2017). Delivering cognitive behavioral therapy to young adults with symptoms of depression and anxiety using a fully automated conversational agent (Woebot). *JMIR Mental Health*, 4(2), e19.
7. Inkster, B., Sarda, S., & Subramanian, V. (2018). Digital mental health interventions for depression, anxiety, and enhancement of psychological well-being among college students: Systematic review. *World Psychiatry*, 17(3), 287–298.
8. Topol, E. (2019). *Deep medicine: How artificial intelligence can make healthcare human again*. Basic Books.
9. Norouzian, R., & Plonsky, L. (2020). *AI in psychological research*. Elsevier.
10. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep learning*. MIT Press.
11. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial intelligence for the real world. *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.
12. Luxton, D. D. (2016). *Artificial intelligence in behavioral health and mental health care*. Academic Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.